



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 528 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Tojirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovatsion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati	411
Hamroyeva Umda	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector	481
Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....	486
И.Ж.Исаков	
O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish	490
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....	497
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari	503
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста	508
Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)	
Изучение условий финансирования проектов международными банками развития	513
Жалилова Барнохон Суръатжонова	
O'zbekiston respublikasi budget jarayonida budgetlarning ochiqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish.....	517
Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li	
Chiqib ketayotgan aktivlarni hisobga olish va baholash masalalari	522
Kuziyeva Dinora Bahodirovna	



CHIQIB KETAYOTGAN AKTIVLARNI HISOBGA OLIH VA BAHOLASH MASALALARI

Kuziyeva Dinora Bahodirovna

PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Audit” kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0005-5059-4948

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi va baholanishi bilan bog'liq dolzarb masalalar yoritilgan. Xususan, aktivlarning tasnifi, realizatsiya qilishdagi huquqiy va amaliy jihatlar, sotish xarajatlari va amortizatsiya hisob-kitoblariga oid muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, chiqib ketayotgan aktivlarning qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar ham ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan ilgari surilgan xulosalar va takliflar, amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, hisob siyosatini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, sotish xarajatlari, amortizatsiya, aktivlarning chiqib ketishi, hisob siyosati.

Abstract: This article addresses pressing issues related to the accounting and valuation of long-term assets. It focuses on the classification of assets, legal and practical aspects of their disposal, as well as the calculation of selling expenses and depreciation. Modern approaches to determining the value of disposed assets are also analyzed. The author's conclusions and recommendations are practice-oriented and aimed at improving accounting policies and enhancing managerial decision-making.

Key words: long-term assets, selling expenses, depreciation, asset disposal, accounting policy.

Аннотация: В статье освещаются актуальные вопросы бухгалтерского учета и оценки долгосрочных активов. Особое внимание уделено классификации активов, юридическим и практическим аспектам их реализации, а также расчету расходов на продажу и амортизации. Рассмотрены современные подходы к определению стоимости выбывающих активов. Выводы и предложения автора направлены на совершенствование учетной политики и повышение эффективности управленческих решений.

Ключевые слова: долгосрочные активы, расходы на продажу, амортизация, выбытие активов, учетная политика.

KIRISH

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish muammosi buxgalteriya hisobining shakllanishi va rivojlanish tarixida doimiy o'rganib kelingan, ko'p qirrali va muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu masala yuzasidan ko'plab olim va mutaxassislar tomonidan nazariy hamda amaliy izlanishlar olib borilgan. Biroq, bugungi kunda iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan murakkab va ko'p hollarda qarama-qarshi tendensiyalar, mavjud buxgalteriya yondashuvlariga tanqidiy baho berishni va ularni chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida bozor islohotlarining jadallashuvi, tubdan yangi iqtisodiy munosabatlar va xo'jalik yuritish shakllarining paydo bo'lishi mavjud qonunchilikka sezilarli o'zgartishlar kiritilishini talab etmoqda. Ayniqsa, ipoteka asosida mulk munosabatlari, uzoq muddatli moddiy boyliklarni ijara asosida boshqarish, ko'chmas mulkni ishonchli vakillar orqali yuritish, mahsulot taqsimoti shartnomalari doirasidagi aktivlar bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Shu bilan birga, uzoq muddatli aktivlar bilan bog'liq buxgalteriya hisobining amaldagi tizimi yangi shakllanayotgan xo'jalik aloqalari va zamonaviy biznes modellari sharoitida barcha iqtisodiy jarayonlarni to'liq qamrab ololmayapti. Amaldagi hisob siyosati va standartlar ko'p hollarda biznes muhitidagi tezkor o'zgarishlarga moslashmagan bo'lib, bu esa yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Aynan shuning uchun, ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va baholash bilan bog'liq dolzarb masalalar chuqur tahlil qilinadi hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar asosida takomillashtirish yo'llari taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzoq muddatli aktivlarning chiqarilishi va baholanishi bilan bog'liq nazariy hamda amaliy jihatlar iqtisodiy adabiyotlarda alohida e'tibor markazida turadi. Xususan, “kapital qo'yilmalar” tushunchasi asosiy vositalarni shakllantirish, ularni yangilash va qayta tiklashga yo'naltirilgan xarajatlar majmuasini o'z ichiga olishi lozimligi



haqidagi qarashlar A. Abdullayev, I.A. Zavalishina, M. Umarova, O. Eshboev, K. Ahmadjonov hamda O.U. Bobojonovlarning qator ilmiy ishlari orqali yoritilgan [1][2][3][4]. Bu yondashuvda kapital investitsiyalar korxonaning real aktivlari va ishlab chiqarish quvvatini tiklashdagi roli asosida talqin etiladi.

Ba'zi iqtisodchi olimlar esa o'z aksiyalarini qayta sotib olish amaliyotini moliyaviy sarmoya faoliyatining muhim yo'nalishi sifatida baholash zarurligini ilgari surmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, professor K.B. O'razov o'zining "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi konseptual masalalari" nomli ilmiy risolasida quyidagicha xulosaga keladi: "Korxonalar o'z aksiyalarini turli maqsadlarda, jumladan, ayrim shaxslarning korxona ustidan to'liq nazoratini ta'minlash yoki ularning bozor qiymati oshganidan so'ng sotib, qo'shimcha daromad olish niyatida sotib oladilar. Shunday ekan, aksiyalarni qayta sotib olish operatsiyalarini moliyaviy investitsiya sifatida e'tirof etish iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanadi" [5].

I.N. Ismanov esa ulushli va qarzli qimmatli qog'ozlarning bozor kon'yunkturasiga qarab muntazam ravishda qayta baholanishi lozimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bunday qayta baholash natijasida hosil bo'ladigan ijobiy farqlar "mulkni qayta baholash" bo'yicha tuzatishlar hisobvaraqlarining debet tomonida aks ettiriladi [6].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 5-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (MHXS) uzoq muddatli aktivlar chiqarilishining moliyaviy hisobotda qanday aks ettirilishi kerakligi bo'yicha qat'iy ko'rsatma bermaydi. Bu esa amaliyotda mutaxassislar o'rtasida mazkur masalaga turlicha yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Masalan, Yu.A. Vasilevning fikricha, "sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar" qisqa muddatli aktivlar tarkibiga kiritilishi kerak. Bu yondashuv, uning ta'rificha, 5-son MHXSning uchinchi bandida bayon etilgan mezonlarga asoslanadi. Ya'ni aktivlar sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan vaqtdan boshlab ularni qisqa muddatli aktivlar sifatida qayta tasniflash nazarda tutilgan [7].

J. Rishar tomonidan esa uzoq muddatli aktivlarni baholash bo'yicha hisob yo'nalishlari muhokama qilingan. Uning fikricha, "statik buxgalteriya hisobi – bu korxonaning barcha aktivlarini sotish paytida, undan tushgan mablag'lar uning kreditorlik qarzlari qoplashga yetarlimi yoki yo'qligini aniqlash imkonini beradigan hisob tizimidir. Statik buxgalteriya hisobi korxona faoliyatining uzluksizlik tamoyiliga zid" [8].

Mazkur masalaga oid yondashuvlar orasida muqobil fikrlar ham mavjud bo'lib, ayrim mutaxassislar uzoq muddatli aktivlarning hisobda aks ettirish tartibiga boshqacha yondashuvni taklif qiladilar. Jumladan, moliyaviy hisobot sohasi mutaxassisi V. Borisenko o'z tadqiqotlarida sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan aktivlar kompaniyaning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotda mustaqil ko'rinishda, ya'ni boshqa aktiv va majburiyat turlaridan alohida tarzda aks ettirilishi lozimligini ta'kidlaydi. Ushbu fikr 5-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standartining 38-bandida belgilangan huquqiy va hisob siyosatiga asoslanadi. Mazkur bandga ko'ra, chiqarib yuborilishi rejalashtirilgan aktivlar guruhi yoki ularga tegishli majburiyatlardan farqli holda, mustaqil satrda ifodalanishi lozim. Bu yondashuv, o'z navbatida, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun kompaniyaning moliyaviy holatini yanada aniqlik bilan ko'rsatish imkonini beradi [9].

Fikrimizcha, ko'rsatilgan hech bir usul 5-son MHXS talablariga, ya'ni sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar (chiqib ketayotgan guruhlar)ning hisobotdagi taqdimotiga zid emas.

Ammo tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, yuqorida tilga olingan iqtisodchi olimlar tomonidan uzoq muddatli aktivlar hisobi bo'yicha tadqiqotlar keng qamrovda olib borilgan bo'lsa-da, ayrim muhim jihatlar yetarlicha qamrab olinmagan. Xususan, aktivlarning chiqarilishi bilan bog'liq aniq mexanizmlar va buxgalteriya yondashuvlarining o'zaro ta'siri hali-hanuz atroflicha yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIOYASI

Ushbu tadqiqotda chiqib ketayotgan uzoq muddatli aktivlarga oid buxgalteriya amaliyotini o'rganish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va mavjud ilmiy manbalar kontent tahlil usuli asosida tahlil qilindi. Shuningdek, amaliy tajribalarni solishtirma va tahliliy yondashuvlar orqali baholashga alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar so'nggi yillarda ularning biznes faoliyati natijalarini chuqur tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Bunday tahlillar natijasida subyektlar ko'pincha o'zlarining ayrim uzoq muddatli aktivlarini realizatsiya qilish, kam daromadli yoki strategik ahamiyatini yo'qotgan yo'nalishlarni yopish, filiallarni tugatish yoki sho'ba korxonalarni to'liq tarzda sotish haqida qaror qabul qiladilar. Bu kabi strategik harakatlar korxonaning umumiy moliyaviy holatiga, kelgusidagi daromadlilik ko'rsatkichlariga hamda pul oqimlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Natijada, ushbu holatlar moliyaviy hisobotlarni tuzishdagi eng muhim prinsip – faoliyatning uzluksizlik tamoyilini xavf ostida qoldirishi mumkin.



Shu kabi vaziyatlar yuzaga kelganida buxgalteriya hisobida alohida yondashuvni shakllantirish zarur bo'ladi. Xususan, bunday operatsiyalarni "sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar" sifatida tasniflash va ular bo'yicha hisob-kitoblarni 5-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (MHXS) talablariga muvofiq amalga oshirish tavsiya etiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar ba'zan asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlar kabi uzoq muddatli aktivlarni sotish bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin. Bundan tashqari, ular butun aktivlar guruhini va ular bilan bog'liq majburiyatlarni ham realizatsiya qilish ehtimolini ko'rib chiqadilar. 5-sonli MHXS aynan shu holat uchun maxsus atama – "chiqib ketayotgan guruh" tushunchasini joriy etgan.

Mazkur standartning A-ilovasida keltirilgan ta'rifga ko'ra, "chiqib ketayotgan guruh" – yagona operatsiya natijasida sotish yoki boshqa shaklda uzatilishi ko'zda tutilgan aktivlar majmuasi va ular bilan bevosita bog'liq majburiyatlarni anglatadi. Ushbu guruh har xil turdagi – uzoq va qisqa muddatli aktivlar hamda majburiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, u pul oqimini shakllantiruvchi yakka birlik yoki uning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Chiqib ketayotgan guruhga amaliy misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: sho'ba korxona, ishlab chiqarish bo'linmasi yoki bir nechta ishlab chiqarish ob'ektlaridan iborat butun boshli biznes yo'nalishi. Bu yondashuv xo'jalik subyekting aktivlarini yanada aniqlik bilan tahlil qilish, ularga to'g'ri baho berish va investorlarga ishonchli axborot taqdim etish imkonini beradi.

Uzoq muddatli aktiv (yoki chiqib ketayotgan guruh), agar uning balans qiymati doimiy foydalanish orqali emas, balki asosan sotish orqali qoplanishi kutilsa, 5-sonli MHXSning 6-bandiga muvofiq "sotish uchun mo'ljallangan" deb tasniflanadi. Masalan, agar kompaniya avtomobilni sotishga qaror qilsa, uning balans qiymati asosan sotishdan tushadigan pul mablag'lari hisobidan qoplanadi. Shu sababli, ushbu avtomobil "sotish uchun mo'ljallangan" tushunchasiga to'liq mos keladi.

Uzoq muddatli aktiv yoki chiqib ketayotgan guruhni "sotish uchun mo'ljallangan" deb tasniflash uchun u ma'lum mezonlarga to'liq javob berishi kerak. 5-sonli MHXSning 7-bandida belgilangan talablarga ko'ra, quyidagi ikki asosiy shart bajarilishi lozim:

1. Aktiv (yoki chiqib ketayotgan guruh) hozirgi holatida zudlik bilan sotish uchun tayyor bo'lishi lozim. Bunda aktivni sotish odatiy bozor sharoitlari asosida amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Ya'ni, aktiv qo'shimcha tayyorgarlik ishlari talab qilinmasdan xaridorga taklif etilishi mumkin bo'lishi zarur.

2. Sotish jarayoni yuqori ehtimollik darajasiga ega bo'lishi kerak. Bu kompaniya tomonidan sotuv bilan bog'liq choralar ko'rilayotganini, jarayon faol olib borilayotganini va bitim muvaffaqiyatli yakunlanish ehtimoli yuqoriligini anglatadi.

1-misol: "Davrr" MChJ rahbariyati o'ziga tegishli ofis binosini sotish bo'yicha qaror qabul qiladi va xaridor izlashni boshlaydi. Bu holatda ikki xil vaziyat yuzaga keladi:

- Bino to'liq holatda sotuvga tayyor bo'lib, kapital ta'mir talab etilmaydi. Ushbu bino "sotish uchun mo'ljallangan aktiv" sifatida tan olinadi, chunki u hozirgi holatida sotilishi mumkin.

- Bino kapital ta'mirga muhtoj bo'lib, kompaniya uni faqat ta'mirdan so'ng sotishni rejalashtirgan. Bu holatda bino "sotish uchun mo'ljallangan" deb tasniflanmaydi va u asosiy vositalar tarkibida saqlanadi.

Sotuv ehtimolligini tasdiqlovchi ikkinchi mezon bajarilishi uchun quyidagi shartlarga ham bir vaqtda rioya qilinishi zarur (5-sonli MHXS, 8-band):

- Kompaniya rahbariyati aktiv yoki chiqib ketayotgan guruhni sotish bo'yicha rasmiy qaror qabul qilgan bo'lishi lozim;

- Xaridor izlash va sotuv rejasi bo'yicha faol harakatlar amalga oshirilayotgan bo'lishi kerak;

- Aktiv bozordagi adolatli qiymatga mos narxda taklif etilayotgan bo'lishi lozim;

- Sotuv bitimini aktiv "sotish uchun mo'ljallangan" deb tan olingan kundan boshlab bir yil ichida yakunlash rejalashtirilgan bo'lishi kerak;

- Amalga oshirilayotgan choralar rejani bajarish qat'iyligini va undan voz kechish ehtimolining pastligini ifodalashi zarur.

Mazkur mezonlar bajarilgan taqdirdagina aktiv yoki aktivlar guruhi "sotish uchun mo'ljallangan aktivlar" sifatida qayd etiladi.

Ammo amaliyotda sotish jarayoni 12 oy ichida yakunlanmasligi mumkin. Agar bu holat kompaniya nazoratidan tashqari sabablar bilan bog'liq bo'lsa va rahbariyat sotish niyatidan voz kechmagan bo'lsa, aktiv (chiqib ketayotgan guruh) tasniflashda davom ettiriladi.


2-misol: "Yulduz" MChJ rahbariyati ishlab chiqarish binosini sotish bo'yicha qaror qabul qiladi va uni "sotish uchun mo'ljallangan" deb tasniflaydi. Xaridor bilan imzolangan shartnoma doirasida bino texnik ekspertizadan o'tkaziladi va kamchiliklar aniqlanadi. Xaridor kompaniyadan nosozliklarni bartaraf etishni talab qiladi, bu esa sotuv muddatining 12 oydan oshishiga olib keladi. Shunga qaramay, kompaniya zudlik bilan ta'mirlash ishlarini boshlaydi. 5-sonli MHXSga ko'ra, bunday holat istisno sifatida qabul qilinadi va aktivni "sotish uchun mo'ljallangan" deb tasniflash davom ettiriladi.



Aktivni “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflash to’g’risidagi qaror, barcha belgilangan mezonlar bajarilgan sana asosida qabul qilinadi. Agar tasniflash mezonlari hisobot davri tugagandan so’ng, lekin moliyaviy hisobot e’lon qilinishidan oldin bajarilgan bo’lsa, bu o’zgarish moliyaviy hisobot asosiy shakllarida emas, balki unga ilova qilingan izohlarda ochiq bayon etiladi.

Bu yondashuv xalqaro buxgalteriya hisobining prinsiplariga muvofiq ravishda foydalanuvchilarga korxonaning moliyaviy holatidagi muhim o’zgarishlar haqida to’liq ma’lumot beradi. Natijada investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar asosli va ishonchli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

3-misol: “Shams” MChJ 2022–12–25 sanasida ishlab chiqaruvchi bo’linmasini sotishga qaror qildi. Aksiyadorlar 2023–01–14 sanasida navbatdan tashqari yig’ilishda qarorni tasdiqladilar. Korxona moliyaviy yili 12–31 sanasida tugaydi va hisobot 2023–04–25 kuni e’lon qilinadi. Tasniflash mezonlari hisobot sanasidan keyin bajarilganligi sababli, 2022-yil uchun moliyaviy hisobotda aktivlar guruhi bo’yicha avvalgi hisobga olish tartibi saqlanadi. Biroq, sotish bo’yicha tegishli ma’lumotlar hisobotga ilova qilingan izohlarda, hisobot davridagi muhim voqea sifatida keltiriladi.



1-rasm. Sotish uchun mo’ljallangan uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish ketma-ketligi.

Sotish uchun mo’ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar (yoki chiqib ketayotgan guruhlar)ni hisobga olish bo’yicha umumiy yondashuv quyidagi bosqichlarga asoslanadi. Bunday aktivlarni hisobga olish bo’yicha standartning asosiy talablarini batafsil ko’rib chiqamiz.

I bosqich.

Aktiv (yoki chiqib ketayotgan guruh) birinchi marta “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflanishidan oldin, ushbu aktivlar va ular bilan bog’liq majburiyatlarning balans qiymati amaldagi moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq qayta baholanadi. Bu baholash 5-sonli MHXSning 18-bandida belgilanganidek, aktivlarning amaldagi me’yoriy hujjatlarga asoslangan qiymatini aniqlashni ta’minlaydi.

Boshqacha aytganda, xo’jalik yurituvchi subyekt uzoq muddatli aktivlarga nisbatan o’zining odatiy hisob siyosatini, ushbu aktivlar “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflash uchun barcha mezonlar bajarilguniga qadar qo’llashi lozim. Ushbu bosqichda e’tibor qaratilgan standartlar ro’yxati to’liq emas. Agar sho’ba korxona “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflangan bo’lsa, uning har qanday aktivlari va majburiyatlari (shu jumladan, qisqa muddatli aktivlar, 5-son MHXS tatbiq etilmaydigan aktiv va majburiyatlar) o’ziga tegishli bo’lgan standartlarga muvofiq baholanadi. Ularning ro’yxati sho’ba korxonaning aktivlari va majburiyatlarining o’ziga xosligiga qarab aniqlanadi.

Agar chiqib ketayotgan guruh yangi sotib olingan va sotib olish vaqtida “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflash mezonlariga javob beradigan kompaniya bo’lsa, u holda 5-sonli MHXSga muvofiq – sotish xarajatlari chegirilgan adolatli (haqqoniy) qiymat asosida baholanadi.

**II bosqich.**

Aktiv “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflangan sanada u ikki qiymatdan pastrog’i asosida baholanadi: mavjud balans qiymati yoki sotish xarajatlari chiqarib tashlangan adolatli qiymat. Agar adolatli qiymat balans qiymatidan past bo’lsa, bu farq aktivning qadrsizlanishi sifatida tan olinadi va buxgalteriya hisobida zarar sifatida aks ettiriladi.

Bundan tashqari, qayta tasniflangan uzoq muddatli aktivlar (alohida yoki chiqib ketayotgan guruh tarkibida), agar ular “Sotish uchun mo’ljallangan uzoq muddatli aktivlar” nomli 5-sonli MHXS talablariga bo’ysunmaydigan bo’lsa, ularga ilgari qo’llanilgan standartlar asosida hisob yuritishda davom ettiriladi. Ushbu standart talablari tatbiq etilmaydigan aktivlar quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- moliyaviy aktivlar;
- adolatli qiymatda baholanadigan investitsion ko’chmas mulk;
- xodimlarga mukofotlash natijasida tan olingan aktivlar;
- kechiktirilgan soliq aktivlari va boshqalar.

Chiqib ketayotgan guruhga kiruvchi aktivlarni baholashga alohida yondashuv talab etiladi. “Sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflangan chiqib ketayotgan guruhning adolatli qiymati butun guruh aktivlari uchun umumiy tarzda hisoblanadi, ya’ni alohida aktivlar emas, balki ular bilan bog’liq majburiyatlar chiqarib tashlangan holda umumiy qiymat aniqlanadi. Bu holatda guruhdagi uzluksiz qadrsizlanishdan yuzaga kelgan zarar 5-sonli MHXSga muvofiq baholanishi lozim bo’lgan uzoq muddatli aktivlar o’rtasida taqsimlanadi.

Mazkur standartning 23-bandiga muvofiq, zarar quyidagi tartibda taqsimlanadi: birinchi navbatda, g’udvilning balans qiymati kamaytiriladi, so’ngra zarar qolgan uzoq muddatli aktivlar o’rtasida ularning balans qiymatiga mutanosib tarzda taqsimlanadi.

III bosqich.

5-sonli MHXS talablari asosida, aktiv “sotish uchun mo’ljallangan” deb e’tirof etilgandan so’ng quyidagilar amalga oshiriladi:

- Uzoq muddatli aktivlar, shu jumladan chiqib ketayotgan guruh tarkibidagi aktivlar bo’yicha amortizatsiya hisoblash to’xtatiladi;
- Aktiv ikkita qiymatdan pastrog’i – balans qiymati yoki sotish xarajatlari chiqarib tashlangan adolatli qiymat asosida qayta baholanadi;
- Bunday aktivlar va ularga tegishli majburiyatlar moliyaviy hisobotda boshqa aktiv va majburiyat turlaridan alohida ko’rinishda, ya’ni ajratilgan tarzda aks ettiriladi.

Har bir hisobot sanasida “sotish uchun mo’ljallangan” aktiv (yoki chiqib ketayotgan guruh) eng kichik qiymat bo’yicha – balans qiymati va sotish xarajatlari chiqarib tashlangan adolatli qiymat asosida baholanadi. Natijada balans qiymatining adolatli qiymatga kamayishi bu aktivning qadrsizlanishidan zarar sifatida tan olinadi va boshlang’ich tasniflash sanasida aks ettirilgan zarar sifatida e’tirof etiladi.

Agar keyingi davrlarda adolatli qiymat oshsa, kompaniya ilgari tan olingan qadrsizlanishdan zarar miqdorida daromadni tiklaydi. Biroq bu daromad ilgari tan olingan umumiy zarardan oshmasligi kerak (hatto aktiv “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflangandan keyin ham).

Bundan tashqari, uzoq muddatli aktiv (yoki chiqib ketayotgan guruh) bo’yicha hali tan olinmagan foyda yoki zarar faqatgina sotuv amalga oshirilgan, ya’ni bitim rasmiylashtirilgan sanada moliyaviy natijalar sifatida tan olinadi (5-son MHXS, 24-band).

Agar ilgari bajarilgan tasniflash mezonlari keyinchalik bajarilmasa (ya’ni aktiv endilikda sotilmasligi yoki rejadani voz kechilsa), u “sotish uchun mo’ljallangan” toifasidan chiqariladi. Bunday holatda aktiv oldingi toifasiga qayta tasniflanadi va quyidagi qiymatlardan pastrog’i asosida baholanadi:

- Aktivning “sotish uchun mo’ljallangan” deb tasniflangan sana holatidagi balans qiymati, tegishli amortizatsiya va ehtimoliy qayta baholashlarni inobatga olgan holda;
- Aktivdan foydalanishni davom ettirish qarori qabul qilingan kundagi tiklanadigan qiymat (yoki foydalanish qiymati).

Agar qayta tasniflashdan keyin aktivning qiymati o’zgarsa, bu o’zgarish “davom ettirilayotgan faoliyatdan kelib chiqqan foyda yoki zarar” sifatida moliyaviy hisobotda aks ettiriladi. Bu esa foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holati va aktivlardan foydalanish strategiyasidagi o’zgarishlar haqida to’liq axborot taqdim etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

5-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (MHXS) talablari asosida “sotish uchun mo’ljallangan uzoq muddatli aktivlar” (yoki chiqib ketayotgan guruhlar) to’g’risidagi ma’lumotlarning moliyaviy hisobotda oshkor etilishi bo’yicha asosiy talablar quyidagilardan iborat:



- Sotish uchun mo'ljallangan deb e'tirof etilgan uzoq muddatli aktivlar (yoki chiqib ketayotgan guruhga tegishli aktivlar) moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda boshqa aktiv turlaridan alohida satrda aks ettirilishi lozim. Bu foydalanuvchilarga ushbu aktivlarning holati va istiqboli haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

- Xuddi shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan chiqib ketayotgan guruh tarkibiga kiruvchi majburiyatlar ham moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda boshqa majburiyatlardan mustaqil tarzda ko'rsatilishi zarur.

- Ushbu aktivlar va majburiyatlar bo'yicha o'zaro qoplash (kompensatsiya) imkoniyati qat'iy man etiladi. Ya'ni, ular alohida hisob yuritilishi va to'liq hajmda aks ettirilishi shart.

- Sotish uchun mo'ljallangan aktivlar va majburiyatlarning asosiy toifalari moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki unga ilova qilingan tushuntiruvchi izohlar orqali aniq ochib berilishi kerak. Bu esa foydalanuvchilarga tahliliy qarorlar qabul qilishda zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etadi.

- Ushbu aktivlar va majburiyatlar bilan bog'liq holda olingan yoki yuzaga kelgan daromadlar va xarajatlar boshqa yalpi daromad tarkibiy qismlaridan alohida, mustaqil ko'rinishda ko'rsatilishi lozim. Bu ularning moliyaviy natijalarga bo'lgan real ta'sirini aniq baholash imkonini yaratadi.

- Sotish uchun mo'ljallangan aktivlar va chiqib ketayotgan guruhlariga oid ma'lumotlarni hisobotning o'tgan davriga tegishli solishtirma shaklda qayta taqdim etish majburiy emas. Ya'ni, solishtirma ko'rsatkichlarni yangilab berish talabi mavjud emas.

Mazkur standartning yana bir muhim jihati shundaki, "sotish uchun mo'ljallangan" deb tasniflangan aktivlarga nisbatan maxsus buxgalteriya hisob qoidalari joriy qilinadi. Ushbu qoidalar orqali aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy qiymatini aniqlashtirish hamda ularni moliyaviy hisobotlarda aniq va tushunarli tarzda aks ettirish ta'minlanadi.

Buxgalteriya hisobiga qo'yilgan bunday talablar ushbu aktivlarning iqtisodiy mohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki mazkur aktivlarning balans qiymati ularning doimiy foydalanilishi orqali emas, balki sotilishi hisobiga qoplanishi kutilgani sababli, ularning hisobini amortizatsiya orqali daromad bilan bog'lash emas, balki baholash jarayoni tashkil etadi.

5-sonli MHXSga muvofiq taqdim etiladigan ushbu ma'lumotlar moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga uzoq muddatli aktivlar va chiqib ketayotgan guruhlarining sotilishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash, kompaniya rentabelligi, moliyaviy holati va pul oqimlarini yanada ishonchli tarzda prognoz qilish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Abdullayev va boshq. *Moliyaviy hisob*. T., "Fan va texnologiya", 2005. – 119 b.
2. I. A. Zavalishina. *Yangicha buxgalteriya hisobi*. – Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2004. – 128 b.
3. M. Umarova, O. Eshboev, K. Ahmadjonov. *Buxgalteriya hisobi*. – Mehnat, 1999. – 65 b.
4. O. U. Bobojonov. *Moliyaviy hisob*. – Toshkent: Sharq, 2000. – 150 b.
5. O'razov K. B. *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari*. Toshkent: Fan, 2005. – B. 89
6. I. N. Ismanov. *Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish*. "Classik" nashriyoti, 2021.
7. Васильев Ю.А. Активы на продажу с позиции МСФО // Услуги связи: бухгалтерский учет и налогообложение. 2012. № 3.
8. Ришар Ж. Бухгалтерский учет: теория и практика: Пер. с фр. /Под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2000. – С. 44.
9. Борисенко В. Учет внеоборотных активов, предназначенных для продажи, и прекращенная деятельность в соответствии с МСФО 5 // Финансовая газета: ежемесячное обозрение. 2012. Вып. 1. URL: http://fingazeta.ru/upload/iblock/689/MSFO_1.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>